

“AMIR TEMUR "JAMG`ARMASI

Qodirova Mamlakat, Mo`minovna

Qarshi davlat universiteti O`zbekiston tarixi kafedrasida tarix fanlari nomzodi, dotsent

Annotatsiya:

Ushbu maqolada Amir Temur siymosi xalqimizda keng o`rganilishi, Amir Temur jamg`armasining tuzilishi, maqsadi, vazifalari va yo`nalishlari borasida izohlar keltiriladi.

Kalit so`zlar: Amir Temur, Jamg`arma, fan, ma`naviyat, Temuriylar, vatanparvarlik, iftixor.

Amir Temur – o`zlikni anglash, milliy ongini uyg`otish, milliy qadriyatlar ruhini tiklash borasidagi ulug`vor ishlarda Vatanimizga ma`naviy oliy kuch bag`ishlab, zabardast poydevor bo`lib kelayotgan ulug`va buyuk, suyukli va ardoqli siymolardan biridir.

Tarixchi Ibn Arabshohning ma`lumot berishicha: “Temur olimlarga mehribon bo`lib, sayyidu shariflarni o`ziga yaqin tutardi. Ulamo va fozillarga to`la –to`kis izzat ko`rsatib, ularni har qanday kimsadan batamom muqaddam ko`rardi”. Hofiz Abro`ning yozishicha esa Amir Temur turk, arab va eronliklar tarixini chuqur bilgan. U davlat ahamiyatiga ega bo`lgan har bir masalani hal etishda, shu sohaning bilimdonlari va ulamolari bilan maslahatlashar edi. Alisher Navoiy esa Amir Temurning ilm va ma`naviyat fidoyisi ekanligi haqida shunday degan edi: “Agar Amir Temur qayerda fan, madaniyat va san`at ahlini uchratsa, ularni o`z homiyligiga olar, ularga izzat-ikrom ko`rsatar, ularning tarbiyasiga ahamiyat berar hamda bu zotlardan o`z oliy majlisida nadim sifatida va boshqa lavozimlardan foydalanardi”.

Bu ulug` zot xotirasi mamlakatimizda har yili abadiylashtiriladi, tavallud kuni keng ko`lamda tashkil etiladi. Sohibqiron nomi bilan bog`liq qutlug` sanalar xalqaro miqyosda nishonlanayotgani, 1996-yilning “Amir Temur yili” deb e`lon qilinishi, “Amir Temur ordeni” ning ta`sis etilishi va O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko`ra Xalqaro Amir Temur xayriya jamg`armasining tashkil etilishi xalqimizning Sohibqiron Amir Temur bobomizga bo`lgan chuqur hurmat va ehtiromidan dalolatdir. 1993-yil 31-avgustda Toshkent shahrida Amir Temur haykali ochildi. 1996-yil 26-aprelda “Amir Temur ordenini ta`sis etish to`g`risida” O`zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilindi. 1996-yil 28-avgustda Samarqand va Shahrisabz shaharlari Amir Temur ordeni bilan mukofotlandi. 1996-yil 14-martda 110-sonli Vazirlar Mahkamasi Toshkentda O`zbekiston Fanlar akademiyasi huzurida “Temuriylar tarixi davlat muzeyini tashkil qilish bo`yicha tadbirlarni amalga oshirish to`g`risida” va “Xalqaro Amir Temur jamg`armasini qo`llab-quvvatlash to`g`risida” qarorlar qabul qilindi.

Bunyodkorlik Sohibqiron davrida davlat siyosati darajasiga ko`tarilgan edi deyish mumkin. Amir Temur faqat o`z mamlakatidagina emas, balki boshqa yurtlarda ham bunyodkorlik ishlarini amalga oshirgani buning dalilidir. Saltanat poytaxti qilib belgilangan Samarqandni

dunyoning eng obod shahariga aylantirdi, ulugʻvorligini koʻrsatish uchun, atrofida Damashq, Bagʻdod, Misr, Sheroz, Sultoniya kabi dunyoning mashhur shaharlari nomlari bilan atalgan, bogʻ-rogʻlarga koʻmilgan qishloqlar barpo qildirdi. Bu anʼanalar Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning davlat, siyosat va ilmiy faoliyatida ham davom etib kelmoqda. Amir Temurning hayoti va faoliyati Yevropa olimlarining tadqiqotlarida doimo tarixiy haqiqat sifatida yoritilganligi tahsinga sazovordir.

Buyuk davlat arbobi Amir Temurning ijtimoiy-siyosiy merosini, madaniyat va maʼnaviyat taraqqiyotiga qoʻshgan hissasini chuqur oʻrganish, yosh avlodga milliy ifixor, gʻurur va mustaqil Vatan tuygʻusini shakllantirish maqsadida mazkur jamgʻarma tuzildi. Bu jamgʻarmaning vazifalari sifatida Amir Temur hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyatini tadqiq qilish; unga doir tarixiy manbalarni oʻrganish va nashr etish; temuriylar davri meʼmorlik yodgorliklarini qayta tiklash; vatanparvarlik tuygʻusini yosh avlod ongiga singdirish kabi xususiyatlarni sanab oʻtish lozim. Bu jamgʻarma oʻz faoliyatini Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligi va Jamgʻarma ustavi asosida amalga oshiriladi. Jamoat, davlat, ilmiy va ijodiy tashkilotlarning Amir Temur hayoti va faoliyatini, Markaziy Osiyo xalqlarining tarixi va madaniyatini oʻrganish borasidagi ishlarini uygʻunlashtirish, shuningdek, Amir Temur haqida hujjatli, badiiy va telefilmlar yaratishga yordam berish ham bu jamgʻarmaning koʻzlagan maqsadlaridan biridir. Amir Temur jamgʻarmasi quyidagi yoʻnalishlar boʻyicha faoliyat koʻrsatadi:

- Temur va temuriylar davri tarixiga oid qadimiy qoʻlyozma asarlarni oʻrganish;
- Markaziy Osiyo xalqlari tarixi va madaniyatiga oid qoʻlyozma asarlarni chop etish;
- Manfaatdor tashkilotlar bilan birga Temur va Temuriylar davri tarixini oʻrganuvchi jamoat kengashlari, klublar va toʻgaraklar tashkil etish;
- Xorijiy mamlakatlar kutubxonalari, muzeylari va jamgʻarmalaridan Amir Temur va uning avlodi merosini topish yuzasidan ilmiy-qidiruv ishlarini olib borish;
- Oʻzbekiston Respublikasi zaminida kelishuv yoʻli bilan bir qator xorijiy mamlakatlarda belgilangan tartibda Jamgʻarmaning boʻlimlari va vakolatxonalarini ochish.

“Amir Temur jamgʻarmasi” ishtirokchilari sifatida jamgʻarmaning taʼsischilari, davlat, jamoat, ilmiy va ijodiy tashkilotlar, banklar, birjalar, aksionerlik jamoalari va uyushmalar, jamgʻarmalar, shuningdek, jamgʻarmaning asosiy vazifalarini bajarishda ixtiyoriy ravishda ishtirok etmoqchi boʻlgan xorijiy mamlakatlarning fuqarolari tarkibiga kiradi. Oʻzbekiston Respublikasini XXI asrda jahonning ilgʻor va yetakchi davlatlari qatorida boʻlishini taʼminlashga qodir va qobil izdoshlarga ehtiyoji kun sayin ortib bormoqda. Ular ona Vatan – Oʻzbekiston manfaatlarini har jihatdan, chunonchi siyosiy, iqtisodiy, harbiy, maʼnaviy-ruhiy himoya qila oladigan salohiyatga ega boʻlishlari lozim. Buning uchun nafaqat hozirgi zamon dunyoviy ilmlarini, balki oʻtmishda oʻtgan buyuk bobolarning hayoti va faoliyatini mukammal bilishlari shu kunning asosiy talabi hisoblanadi. Bularni egallamay turib biror bir shaxs komillik darajasiga erisha olmaydi.

Tarixda o'tgan buyuk shaxslarimiz, ayniqsa, Amir Temurning hayoti va faoliyati bunda asosiy mezon bo'la oladi. Uning har qanday mushkul siyosiy, harbiy, diplomatik vaziyatlardan chiqib keta olish zakovati, mardligi, jasorati, vatanparvarligi, topqirligi, temir irodaviy xususiyatlari avlodlar uchun ibrat, hayot maktabi, vatanga xizmat qilish namunasi bo'lib qolishi lozim. Amir Temur jamg'armasi ham ana shunday ibrat maktabidir. Endigi gap ana shunday bemisl va betakror, butun jahon e'tirofiga sazovor bo'lgan buyuk siyosiy va harbiy arbob, fan va madaniyat homiysi sohibqiron Amir Temurning hayotini chuqur va zehn bilan o'rganishda qolgan. Yoshlarimiz uni qanchalik mukammal o'rgansalar, undan shunchalik saboq oladilar. O'zbekistonning sobitqadam, jasur, aql-idrokli ona vatan qudratini jahonga ko'z-ko'z qilishga qodir va xos fidoiy farzandlari bo'lib yetishadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Amir Temur "Temur tuzuklari" T: 1996.
2. Bo'riboy Ahmedov "Amir Temurni yod etib" .T: 2018.
3. "Amir Temur jamg'armasini tashkil etish to'g'risidagi qonun" .1996.